

## Singapur Tajribasida To'g'ridan-To'g'ri Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilish

### **A. Nasrullayev Sharof Rashidov**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

### **A. Turg'unboyev Sharof Rashidov**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

### **O. N. Xaitov Sharof Rashidov**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti


**Anotatsiya:** Ushbu maqolada qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, bozorni rivojlantirish va ushbu faoliyatni samarali tashkil etish har bir mamlakat boshqaruvining muhim strategik yo'nalishlaridan biri ekanligi sir emas. Shunday ekan, qimmatli qog'ozlar bozorida yirik va har tomonlama samarali faoliyat olib boruvchi investitsion fond mavjudligi muhim o'rin egallaydi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Dunyo bo'ylab ko'plab yirik kompaniyalar va kichik korxonalar bor, ular nima uchun Singapurga sarmoya kiritish kerak deb o'ylashlari mumkin. Ko'pgina davlatlar o'z pullarini ushbu mamlakatga sarmoya kiritishga jalb qiladi. Chunki, dunyodagi eng innovatsion davlatlardan biri bo'lgan Singapur yuqori raqobatbardosh iqtisodiyotga va intellektual mulk himoyasiga ega. Investitsiyalar uchun qulaylik, past korporativ soliq stavkasi va sarmoyadan olinadigan daromad solig'ining yo'qligi chet elliklar uchun Singapurga sarmoya kiritilishiga olib keladigan ba'zi sabablardir.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga kelsak, Singapur yaxshi mavqega egaligi bilan butun dunyoda ajralib turadi. Singapur to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha dunyoda 4-o'rinni egallaydi. Chet elliklar uchun Singapurga sarmoya kiritish oson, chunki ularning investorlar uchun qulay soliq tizimlari mavjud. Kuchli savdo va investitsiyalar, yaxshi infratuzilma va tarmoq, strategik joylashuv va jozibador soliq tizimi chet el fuqarolarini Singapur biznesiga

sarmoya kiritishga undaydi. Mamlakatda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlash uchun kuchli va mukammal qonunchilik bazasi va ilg'or bank tizimi mavjudligi bilan ajralib turadi. Singapurga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'rib chiqadigan bo'lsak (1-rasm). Singapurga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 10 yil davomida faqat o'sish va kamayish tendensiyasi kuzatilgan, faqat 2019 yilda eng yuqori cho'qisiga chiqqan.



**1-rasm. 2012 - 2021 yillarda Singapurga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sof oqimi (milliard AQSh dollarida)<sup>82</sup>**

2021 yilda Singapurga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 99 milliard AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish tendensiyasi kuzatildi. Mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sof tushumi 2019 yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi va qariyb 106 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Singapurda korxonalar soliq stavkasining pastligi 17 foiz va korrupsiyaga qarshi qonunlar va tekshiruvlar mahsuli bo'lgan korrupsiyaning past darajasi, uni AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaning 7000 transmilliy korporatsiyasi va Hindiston va Xitoydan 3000 ta kompaniyani o'z ichiga olgan.

Singapur 2019 yilda Osiyo Tinch okeani va dunyodagi eng yaxshi ishbilarmonlik muhiti (The Economist Intelligence Unit) nominatsiyasida birinchi o'rinni egalladi (Global Economist Intelligence Unit) va AQShni ortda qoldirgandan so'ng Global Raqobatdoshlik Indeksining eng yuqori darajasi oldi (Global Competitiveness Report, 2019). Singapur AQSH, Xitoy va Gonkongdan keyin dunyoda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Singapur xorijdagi eng yirik sarmoyadorlar orasida o'ninchi o'rinda turadi, 2021 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 99 milliard AQSHdollarini tashkil qildi.

Rivojlanish yillari davomida Singapur yuqori sifatli infratuzilma, barqaror investitsiya muhiti, barqaror siyosiy muhit va mehnatsevar va intizomli ishchi kuchiga ega bo'lib, biznes faoliyati uchun dunyodagi eng qulay joylardan biri hisoblanadi. Xususan, Singapur intellektual mulk huquqlarini eng yaxshi ta'minlanishi bilan mashhur hisoblanadi.

2020 va 2021 yillarda Singapur Osiyo-Tinch okeani mintaqasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya loyihalari hajmi bo'yicha Hindiston, Avstraliya va Xitoydan keyin to'rtinchi o'rinni egalladi. 2020 va 2021 yillar oralig'ida loyihalar sonining o'sishiga guvoh bo'lishiga qaramay, Singapurning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha mintaqaviy bozordagi ulushi nominal 11foizdan 10,1 foizgacha qisqardi. Singapurga eng ko'p sarmoya kiritgan davlatlar AQSh, Niderlandiya va Yaponiyadir. Mahalliy hukumat Singapurga investitsiyalarni jalb qilishni xohlaydi, chunki, chet ellik tadbirkorlar uchun turli xil imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

Umuman olganda yuqorida o'rganilgan xorij tajribasidan kelib chiqqan holda respublikamizda investitsiya fondlarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishda quyidagi jihatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi:

- mamlakatimizda investitsiya fondlari sonining boshqa xorijiy mamlakatlarga nisbatan ozligi sababli ularning sonini oshirish hamda investitsiya fondlarini rivojlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini faoliyat mexanizmini yanada takomillashtirish lozim;

- investorlar o'z mablag'larini investitsiya fondlariga qo'yishlari uchun sarmoyalarni himoyalash mexanizmini yanada mukammallashtirish maqsadga muvofiq;
- mamlakatimiz aholisi (potensial xorijiy investorlar)ning investitsiya fondlari to'g'risidagi huquqiy bilimlarini oshirish va umuman qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kapital bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim.

Fikrimizcha, biz tomonimizdan taqdim etilgan yuqoridagi fikr miulohazalar mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda investitsion fondlar faoliyatini takomillashtirishda o'z munosib hissasini qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3